

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 7

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

TEXNOGEN VA MILLIY ONG MUVOZANAGA KELTIRISH ZARURATI

Avlakulov Aktam Mavlonkulovich

Toshkent kimyo-texnologiya instituti, katta o'qituvchi (PhD).

e-mail: aktam.a@mail.ru ORCID: <https://orcid.org/0000-0003-3789-3263>

Annotatsiya.

Ushbu maqolada texnogen ong va milliy ong o'rtasidagi munosabatni muvozanatga keltirish zarurati, yo'llari hamda oqibatlari xususida fikr-mulohazalar ilgari surilgan. Shuningdek, texnogen sivilizatsiya sharoitida milliy ongni inqirozga yuz tutib borishining ijtimoiy oqibatlari ilmiy adabiyotlar asosida tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: texnogen ong, milliy ong, globallashuv, texnogen taraqqiyot, ijtimoiy ong, texnologiya, sun'iy intellekt, avtomatlashtirish, raqamli jamiyat, texnokratik muhit, milliy qadriyatlar, innovatsiya, ijtimoiy taraqqiyot, axloqiy mas'uliyat.

НЕОБХОДИМОСТЬ ОБЕСПЕЧЕНИЯ БАЛАНСА МЕЖДУ ТЕХНОГЕННЫМ РАЗВИТИЕМ И НАЦИОНАЛЬНЫМ СОЗНАНИЕМ

Авлякулов Актан Мавлонкулович

Ташкентский химико-технологический институт, старший преподаватель (PhD).

Аннотация.

В данной статье выдвигаются мнения о необходимости, путях и последствиях балансировки отношений между техногенным сознанием и национальным сознанием. Также на основе научной литературы анализируются социальные последствия кризиса национального сознания в условиях техногенной цивилизации.

Ключевые слова: техногенное сознание, национальное сознание, глобализация, техногенное развитие, общественное сознание, технологии, искусственный интеллект, автоматизация, цифровое общество, технократическая среда, национальные ценности, инновации, социальное развитие, моральная ответственность.

THE NEED TO ENSURE A BALANCE BETWEEN TECHNOGENIC DEVELOPMENT AND NATIONAL CONSCIOUSNESS

Avlakulov Aktam Mavlonkulovich

Tashkent Institute of Chemical Technology, Senior Lecturer (PhD).

Abstract.

This article puts forward views on the necessity, ways, and consequences of balancing the relationship between technogenic consciousness and national consciousness. Also, based on scientific literature, the social consequences of the crisis of national consciousness in the context of technogenic civilization are analyzed.

Keywords: technogenic consciousness, national consciousness, globalization, technogenic development, public consciousness, technology, artificial intelligence, automation, digital society, technocratic environment, national values, innovation, social development, moral responsibility.

Kirish. Milliy ong millat vakillarining o'tmishi, buguni va kelajagi bilan bog'liq bo'lgan hayot jabhalarini qamrab oluvchi ijtimoiy ong shaklidir. Milliy ongda millatning o'zligini anglash, milliy his-tuyg'ular, urf-odat, an'ana va qadriyatlar, milliy meroslarni asrab-avaylash, o'z millatdoshlariga munosabat, millatning jipsligini ta'minlash kabi bir qancha xatti-harakatlar o'z ifodasini topadi. Milliy ong muayyan millat vakillarining milliy ruhiyatini aks ettiradi. Millat milliy ongni mustahkamlash orqali milliy taraqqiyotni ta'minlashga intiladi. Bu o'z navbatida o'zga millatlar ichida o'ziga xos o'ringa ega bo'lishiga ko'maklashadi. Bugungi kunda milliy ongni saqlash, uni takomillashtirish jarayoni murakkablashib bormoqda. Bunga ayni paytda rivojlanayotgan texnogen ong o'z ta'sirini o'tkazmoqda.

Shuningdek, texnogen ong tushunchasi ilmiy iste'molda ko'p qo'llaniladigan tushuncha sifatida uning mazmunini anglash, mohiyatini tushunishga intilish zarurati texnika va texnologiyalarning taraqqiy etish tezligi kabi shiddat bilan takomillashib bormoqda.

«Texnogen ongni rivojlanishiga ikki tomonlama qarash xolislik nuqtai nazaridan adolatli bo'ladi. Birinchidan, u yangi texnika va texnologiyani yaratishga hamda bu bilan insonlarning moddiy farovonligining oshishiga yordam beradi. ... Shu bilan birga, texnika va texnologiyani boshqarish imkoniyati inson qo'li va intellektual salohiyati darajasidan ilgarilab ketishi uning, oxir oqibatda, o'zini o'zi halokatga mahkum etishi mumkinligini ham hisobga olish o'ta muhim». Yuqori darajadagi texnika va texnologiya vositalari ularni ishlab chiqargan mamlakatlar, xalqlar va millatlarga juda katta

miqdorda moddiy manfaat keltirmoqda. Yuqori darajadagi moddiy manfaatdorlik texnika va texnologiyaga nisbatan turli ijobiy qarashlarning shakllanishiga olib keldi hamda texnika va texnologiyalar kishilar ongi, dunyoqarashi va tafakkurining o'zgarishiga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda.

Oksford universiteti professori Luzano Floridi (Luciano Floridi) «Texnogen ong – bu nafaqat texnologik yoki iqtisodiy rivojlanish omili, balki odamlarning umidlari masalasidir», – deya ta'kidlaydi. Demak, texnogen ong nafaqat insonlarning bugungi taraqqiyoti uchun, balki taraqqiyotning istiqbolini ham belgilab beradigan kuch, omildir.

Mavzuga oid dabiyoatlarning tahlili. Rus tadqiqotchi olimlari I. S. Baklanov, S. I. Pelevin hammuallifligida nashr qilingan «Postindustrializm evolutsiyasida texnik va texnologik ong: axborotlashgan jamiyatsdan ilm va raqamli jamiyat sari» deb nomlangan maqolasida «texnogen ong» tushunchasini: «Texnogen ong – bu yaxlit, murakkab hodisa bo'lib, u nafaqat inson faoliyati bilan bog'liq bo'lgan ijodiy elementlarni o'z ichiga oladi, balki doimiy ravishda axloqiy va aksiologik xarakterga ega bo'lgan texnika va texnologiyani qanday qilib qo'llash mumkinligini aks ettiradi», – deb ta'riflaydi. Muallif texnogen ongni kishilarning texnika va texnologiyaga nisbatan axloqiy va aksiologik munosabatlar majmuasi sifatida tushuntiradi. «Har bir ilmiy yangilik, yaratilgan kashfiyot – bu yangicha fikr va dunyoqarashga turtki beradi». Shuning bilan birga texnika va texnologiya sohasidagi ishlanmalar rivojining shiddatli oqimi insoniyat istiqbolda qanday texnologiyalar ta'sirida rivojlanishi mumkinligini tushunishni murakkablashtirib yubormoqda. Ana shu xavotirli ehtimol ham texnogen ongning insoniyat uchun ahamiyati qanchalik muhim ekanligini ko'rsatib beradi. Bu insoniyat texnika va texnologiyalar taraqqiyoti bilan uzviy holda taraqqiyot sari intilishda o'zining milliy mentaliteti va o'ziga xosligini mustahkam saqlab qolishga intilishini kuchaytirish talabini oshiradi. Bu esa insonlarning muayyan millatga mansubligi xavf ostida qolayotganligini ifodalaydi. Ya'ni, texnogen ongni shakllantirishda insonlarda milliy ongning sayozlashuv jarayoni ro'y berishi mumkinligini anglatadi, milliy ongni saqlab qolish uchun esa texnogen ongni milliy ong bilan birgalikda rivojlanishini ta'minlash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Professor S. Otamuratov «Texnogen ong, insonlarning texnika va texnologiyani o'zining moddiy, ijtimoiy, siyosiy hamda ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyotini yuksak darajada rivojlantirishning asosiy omili sifatida qarovchi tasavvurlar majmui» ekanligini ta'kidlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada texnogen ong va milliy ong o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash masalasini o'rganishda nazariy tahlil, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv va mantiqiy umumlashtirish usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Texnogen ong tushunchasiga turli olimlar tomonidan bildirilgan munosabatlardan: 1) texnogen ongning ijobiy hodisa ekanligi; 2) texnogen ong texnologik va iqtisodiy rivojlanish omili ekanligi; 3) kishilarga xos bo'lgan ijtimoiy ongning shakli ekanligi; 4) inson aqliy faoliyati bilan bog'liq ijodiy elementlar majmui ekanligi; 5) texnika va texnologiyalardan foydalanishni o'rgatadigan ijtimoiy ong shakli ekanligini tushunish mumkin.

Texnogen ong – yangi texnika va texnologiyalarni kashf qilish va ulardan foydalanish ko'nikmasini takomillashtirishga xizmat qiladigan ijtimoiy ong shakli. Uning o'ziga xos xususiyati kishilarni texnika va texnologiyalardan o'zi va o'zgalarning manfaatlarini inobatga olgan holda ezgu va oliyjanob maqsadlar yo'lida foydalanishga undaydi. Mana shunday umumiy, ijobiy holatni umuminsoniyat tafakkurida qaror toptirish, shakllantirish, takomillashtirish uchun ham texnogen ongni shakllantirishga bo'lgan talab va ehtiyoj yuzaga keldi. «Tabiiyki, texnika va texnologiyalardan ko'rilayotgan moddiy manfaatdorlik unga nisbatan qarashlar va tasavvurlarning takomillashib borishiga ijobiy ta'sir o'tkazdi. Shu jarayonning natijasi o'laroq, texnika hamda texnologiya inson ongi, tafakkuri va dunyoqarashining ajralmas qismiga aylangan. Bugun bu qarashlar, munosabatlar va tasavvurlar texnogen ongning mustaqil ong shakli sifatida rivojlanishi hamda amal qilishiga olib keldi». Texnogen ongni shakllantirish – texnika va texnologiyalardan katta miqdorda moddiy manfaatdor bo'lishga intilish shartlaridan biridir. Texnogen ong qanchalik rivojlanganligi, takomillashganligiga qarab texnika va texnologiyalardan foyda ko'rish, manfaatdor bo'lish, ulardan maqsadli foydalanish, uni takomillashtirish yuqorilab boraveradi. Texnogen ongning shakllanishi va ilmiy iste'molga kirib borishi bugungi kundagi globallashtirish jarayonining shiddati bilan bevosita bog'liqdir. Yangi-yangi texnikalarning yaratilishi, uning bugungi kundagi barcha muammolarining hal qilinishida «yagona yechim» sifatida ko'rilishi kishilarning ulardan foydalanish ehtiyojini oshiradi hamda o'z ijtimoiy faoliyatlarida ularning imkoniyatlaridan foydalanishga intilishni kuchaytiradi. Bu esa insonlarda zamonaviy texnika vositalaridan foydalanish ko'nikmasini kashfiyotlar bilan uyg'un holda kechishi kerakligini ifodalaydi. Texnika va texnologiyalar taraqqiyotining kishilar ongi va tafakkuridan o'zib ketishi inson-texnika munosabatlarining buzilishiga, inson va jamiyat ijtimoiy hayotida salbiy ta'sirlarning kuchayib ketishiga olib kelishi yoxud yovuz niyatli kishilarning o'z g'arazli maqsadlarini amalga oshirish vositasiga aylanib qolishi kabi xatarli holatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Aniqroq qilib aytganda, kishilar o'zlarining ijtimoiy hayot faoliyatlarida muayyan muammolarning «yechimi»ni topishda texnika, texnologiya vositalaridan samarali foydalana olish imkoniyatlaridan mahrum bo'lib qolishi mumkin. Bu esa kishilarning texnikaga bog'lanib yoki texnikaga qaram bo'lib qolishiga olib kelishi yoxud texnokratik muhitning qaror topishini amalda namoyon bo'lishiga olib keladi. Texnogen ongning inson intellektual salohiyati darajasidan o'zib ketishi turli tuzatish mushkul bo'lgan muammolarni keltirib chiqarishi hech gap emas. «So'nggi yuz yil ichida jamiyat mavjud bo'lgan har qanday vaqtga qaraganda texnologiyaga ko'proq bog'liq bo'lib qolmoqda. Hayotni yaxshilashi va soddalashtirishi mumkin bo'lgan yangi texnologiyalar bizni faqat ularga qaram qiladi».

Masalan, «Ishlab chiqarishni robotlashtirish bo'yicha yetakchi mamlakatlardan biri bo'lgan Yaponiya 2030-yilga kelib 2 million 400 ming yapon o'z ish joylaridan mahrum bo'lar, ularning o'rnini robotlar egallar ekan». Bu bugungi kunda global ijtimoiy muammo sanaladigan ishsizlik darajasining yana ham oshib ketishiga sabab bo'ladi. To'g'ri, ishlab chiqarishni avtomatlashtirish, robotlashtirish bir tomondan tabiiy resurslardan foydalanishda tejankorlikni (tabiiy resurslarning muqobil turlaridan foydalanish orqali) ta'minlashga, mahsulot miqdorining, sifatining oshishiga, qisqa

vaqtda ko'proq mahsulot ishlab chiqarishga, sog'lom raqobat muhitining rivojlanishiga olib keldi. Lekin masalaning ikkinchi tomoni mehnat bozorida ishchi kuchiga bo'lgan (inson omiliga bo'lgan talabni) keskin kamayishiga olib keldi. Natijada dastlabki texnologiyalarning ishlab chiqarishga jalb qilinishi ko'pgina insonlarning qarama-qarshiligiga sabab bo'ldi. Dastlabki sanoat uskunalarning ishlab chiqarishda joriy qilinishi insonlarda istiqbolida inson omili o'rnining yo'q bo'lib ketishi mumkinligi to'g'risidagi turli xavotirli munosabatlarni shakllantirdi. Bu kishilarda yashab qolish imkoniyatlarini kamaytiruvchi vosita sifatida baholandi. Lekin texnika va texnologiyalar insonlar uchun bir qancha qulayliklarni keltirib chiqaruvchi vosita sifatida o'z o'rnini mustahkamlab bordi. Bu – insonlarda bo'sh vaqtning paydo bo'lishiga, og'ir jismoniy mehnatning insondan texnikaga o'tishiga, mehnat unumdorligini oshirishga va kishilar ehtiyojini yuqori darajada qondirishga qaratilgan vositalar majmui sifatida ijobiy taassurotlarni shakllantirdi. Keyinchalik insonlar jamiyatda o'z o'rinlarini topish uchun aql-zakovatni yuksaltirish kerakligini his eta boshladi. Bu esa texnika va texnologiyalardan foydalanish uchun texnogen ongni shakllantirish kerakligi hissing yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. «...texnogen taraqqiyot tufayli nafaqat inson ehtiyojlarini qondirishning misli ko'rilmagan imkoniyatlari va qulayliklar yaratiladi, balki olamshumul inqirozlar yuzaga keladi, ongning funksional takomillashishi va Yerdagi hayot esa texnik faoliyat va stixiya «qonunlari» bilan belgilana boshladi. Bu jarayonlar insonning ongli faoliyati bilan bog'liq holda amalga oshirildi».

Aslida texnogen ong kishilar evolutsion taraqqiyoti bilan birga tadrijiy, bosqichma-bosqich rivojlangan va milliy ongning ajralmas qismi sifatida qarab kelingan. Texnogen ongning taraqqiy etishi eng qadimgi oddiy mehnat qurollarini yasashdan tortib bugungi kundagi eng murakkab, yuqori darajadagi texnikalarni ishlab chiqarishgacha bo'lgan uzoq davrni o'z ichiga oladi. Dastlab, texnogen ong mehnat qurollari, uy-ro'zg'or anjomlarini yasash, ulardan foydalanish kabi muayyan hududda yashagan kishilar ehtiyojlarini qanoatlantirgan ong shakli sifatida rivojlangan. An'anaviy sivilizatsiyalarda texnogen ong milliy ongning tarkibiy qismi sifatida qarab kelingan. Shuning uchun ham sodda ko'rinishdagi texnika vositalari (ov qurollari, mehnat qurollari, uy-ro'zg'or buyumlari) turli hududlarda yashaydigan insonlarda shakl nuqtayi nazaridan turlicha ko'rinishda bo'lgan va bu turli xil ko'rinishdagi vositalardan odamlar uzoq yillar mobaynida foydalanib kelganlar. Ya'ni yangicha texnika vositalarini o'ylab topish va undan foydalanish juda sust kechgan. Bir so'z bilan aytganda, an'anaviy sivilizatsiyalar sharoitida texnogen ong yangi sivilizatsiya (texnogen sivilizatsiya)ni vujudga keltiradigan darajada katta ta'sir kuchiga ega bo'lmagan. Bugun esa, texnogen ong o'zining ta'sir doirasini kengaytirib, umuminsoniy xususiyatini to'liq namoyon etmoqda. Bu zamonaviy texnika vositalarini yaratish, ishlab chiqarish va ulardan qanday foydalanish ko'nikmalarini o'z ichiga oladigan ijtimoiy ong shakli sifatida rivojlanib bormoqda. Endi texnogen ongni milliy ongni mustahkamlashga yo'naltirish orqali milliy taraqqiyotni ta'minlash zarurati ham shakllanib bormoqda.

Professor S. Otamuratov millat vakillarida texnogen ongning rivojlanishi quyidagi ijobiy natijalarga sabab bo'lganligini ta'kidlaydi: «a) yangi texnologik va texnik ishlanmalarining yaratilishiga; b) insonlarning moddiy farovonligiga; v) millat intellektual salohiyatining o'sishiga; g) millat turmush kechirish sharoitlarining yengillashtirilishiga; d) millat vakillarining ish bilan ta'minlanishiga; e) mehnat sharoitlarini yaxshilashga; j) mehnat unumdorligining oshishiga xizmat qilib kelgan». Nazarimizda, bulardan tashqari, texnogen ongning rivojlanishi yana bir qancha umuminsoniy manfaatlarga xizmat qiladigan qulayliklarga ham sabab bo'ladi: 1) butun insoniyat ijtimoiy turmush tarzining yengillashishiga, ya'ni qashshoqlik va kambag'allik yuqori bo'lgan davlatlarga o'zaro insonparvarlik yordamlari ko'lamining oshishiga; 2) dunyo bozoridagi raqobat natijasida ishlab chiqariladigan mahsulot miqdori va sifatining oshishiga, natijada mahsulot sifati yaxshilanishi va narxining pasayishi sodir bo'ladi; 3) ishlab chiqarishning texnikalashtirilishi ishchi kuchiga bo'lgan talabni kamaytiradi va bir nechta texnika yuzlab insonlar qiladigan ishlarni tez va nuqsonsiz bajarishi hisobiga mehnat unumdorligining ortishiga; 4) yangi texnika va texnologiyalar turlariga jamiyat a'zolari, ayniqsa, yoshlar tomonidan qiziqishning ortishi ularning ommalashib borishiga olib keladi; 5) insonlar intellektual salohiyatining o'sishiga (savodxonlik darajasi past bo'lgan mamlakatlarga rivojlangan davlatlarda istiqomat qiladigan ko'ngillilar tomonidan amalga oshiriladigan yordamlarning ko'payishi); 6) ishchi kuchlarining erkin harakat qilishiga (bugun deyarli barcha kasblar texnikaga oid bilimlarni talab qiladi. Shuning uchun ham ishchi kuchi sifatida boshqa davlatlardan ish izlab ketgan kishilar bexavotir o'zlariga mos ish topishlari osonlashadi yoki o'zlariga tegishli mutaxassislik bo'yicha kerakli ishlarni internet tarmoqlaridan tez va oson topishlari mumkin bo'ladi); 7) moddiy farovonlikning oshishiga (yangi texnika va texnologiyalar yoki texnik ishlanmalar ishlab chiqaruvchilarga juda katta manfaat olib keladi. Ana shu manfaatdorlik texnika turlarini yanada takomillashtirishga sabab bo'ladi. Bu esa ishlab chiqaruvchi subyektlar moddiy farovonligini kafolatlaydi); 8) insonlarning o'sib borayotgan ehtiyojlarini qondirish vositasiga aylanib borayotganligining oydinlashishi kabi jarayonlarga xizmat qiladi.

Bugungi kunga kelib, texnogen ongning shakllanishiga bir qancha omillar ta'sir etadi. Professor S. Otamuratovning fikricha, bunga globallashtiruv jarayoni, insoniyat intellektual salohiyatining oshib borishi, bugun shakllangan va butun insoniyat hayotini tubdan o'zgartirib yuborgan tamaddun (sivilizatsiya), taraqqiyotda texnokratik qarashlarning amal qilayotganligi, mamlakatlararo munosabatlarda iqtisodiy, texnik va texnologik hamkorlikning yetakchilik qilayotgani va tarbiya omillari o'z ta'sirini o'tkazmoqda.

Yuqoridagi omillarni inkor etmagan holda, bizning fikrimizcha, texnogen ongning shakllanishiga yana quyidagilar o'z ta'sirini o'tkazadi:

birinchidan, texnogen ongning shakllanish jarayoni insoniyat ongi, dunyoqarashi va tafakkurining takomillashuvi bilan ham chambarchas bog'liq. Negaki, inson tafakkuri, aql-zakovati taraqqiy etib borar ekan, murakkab texnologiyalarni yaratish jarayoni ham takomillashib boraveradi. Yaratilayotgan murakkab texnologiyalarni o'zlashtirish, boshqarish, ulardan o'z ehtiyojlari va manfaatlari yo'lida foydalanish ham o'sib boraveradi. Texnogen ongning qay darajada shakllanganligiga qarab yangi yaratilgan texnologiyalardan foydalanish, uni o'zlashtirish yoki yangi texnika turlarini

ishlab chiqarish ko'nikmalari ham o'sib boradi. Shu bilan inson tafakkuri texnogen ong rivojini ta'minlashga o'zining ta'sirini o'tkazadi;

ikkinchidan, istiqbolda barcha sohalar taraqqiyoti texnika va texnologiyalar bilan uzviy bog'liqligining oydinlashib borayotganligi kishilarda texnogen ongning shakllanish zaruratini ehtiyoj darajasiga olib chiqayotganligi bilan aloqador. Hozirgi asrimizda texnika ta'siriz rivojlanayotgan sohalar qolmadi. Barcha sohalar istiqboli texnika taraqqiyotiga bog'liqligi kuchayib bormoqda. Shuning uchun biror kasb egasi, mutaxassisi bo'lmoqchi bo'lgan insonlar texnikaga oid bilimlarni ham egallashlari shart bo'ladi. Bu esa kishilarda texnogen ongni shakllantirish hisobidan kechishini anglab yetishlari orqali amalga oshadi;

uchinchidan, bugungi kundagi ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, sun'iy ongning qo'llanilishi, texnika va texnologiyalar hamda robotlarni jalb qilishning kuchayib, smart (aqlli) texnologiyalarga bo'lgan talabning ortib borayotganligi ham kishilarda texnogen ongni shakllantirish jarayonini tezlashtirib yubordi. Biz xohlaymizmi, yo'qmi, taraqqiyotning keyingi bosqichlarida ishlab chiqarishning barcha turlari avtomatlashtirish va robotlashtirish orqali taraqqiyotga intiladi. Bu jarayonga qadamlar allaqachon tashlangan. Bir qancha rivojlangan davlatlar turli xil maishiy xizmat ko'rsatish joylarida, xavfsizlik sohasidagi ishlarda, aeroportlarda, ijtimoiy obyektlarda sun'iy onglashtirilgan texnologiyalar yordamlaridan foydalanmoqda. Yaqin kelajakda bu amaliyot barcha sohalarini qamrab olishi muqarrar. Yana bir oddiy misolni keltiramiz, har bir insonning uyidagi smart texnologiyalar (smart televizorlar, smartfonlar, avtomatik harakat qiladigan changyutgichlar)ning mavjudligi bu jarayonning yuz berishi yaqinlashganining yorqin dalilidir.

Aqlli texnika va texnologiyalarda sun'iy ong tizimining aks etishi kishilarda jiddiy xavotirlarni ham keltirib chiqarmoqda. Endi odamlarga o'xshab fikrlaydigan robotlardan ko'ra robotlarga o'xshab fikrlaydigan odamlar ko'payib borayotganligi buning tasdig'idir. Ya'ni fikrlashda qotib qolish, kitob o'qimaslik, ilm olishga qiziqishning so'nib borayotganligi, qat'iy qaror qabul qilish jarayonida qiyinchiliklarga duch kelish kabi bir qancha muammolar yuzaga kelmoqda;

to'rtinchidan, global muammolarni hal etishda dunyo davlatlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni ta'minlash ehtiyojining ortib borishidir. Bir qator global muammolarning yechimi dunyo davlatlari o'rtasidagi global hamkorlikka bog'liq. Bunday hamkorlik jarayonida rivojlangan mamlakatlar kam rivojlangan davlatlarga yuqori darajadagi texnika va texnologiyalarni beg'araz yordam tariqasida taqdim etishlari orqali muammoning yechimini izlashga harakat qiladilar. Natijada bir tomondan global muammoning qisman yechimi topilsa, ikkinchi tomondan kam rivojlangan mamlakat dunyoning yetakchi davlatlaridan olgan «yordam»lari orqali ijtimoiy-iqtisodiy hayoti qisman bo'lsa-da, yaxshilanishi mumkin. Masalan, dunyoda aholisi qashshoq, lekin tabiiy resurslarga boy davlatlar o'zlaridagi tabiiy resurslardan foydalanish uchun moddiy imkoniyatining cheklanganligi undan foydalanishdagi asosiy to'siq sanaladi. Rivojlangan davlatlarning resurslarga boy mamlakatlarning tabiiy resurslarini o'zlashtirish uchun ularga taqdim qilgan texnika va texnologiyalari natijasida yangi ish o'rinlar yaratiladi, aholining ijtimoiy ahvoli yaxshilanib boradi va davlat ham bundan moddiy manfaat ko'radi. Kiritilgan yangi texnika va texnologiyalardan foydalanish ko'nikmasini hosil qilish uchun ham texnogen ongni shakllantirishga ehtiyoj seziladi. Bu ham o'z navbatida texnogen ongni shakllantirish uchun muhim omil hisoblanadi;

beshinchidan, bugungi kunga kelib texnika va texnologiyalar taraqqiyoti, uning imkoniyatlari insonlar ongi va dunyoqarashidan ilgarilab ketdi. Natijada, texnogen ongning rivoji texnika taraqqiyotidan orqada qoldi. Texnika va texnologiyalar inson ongi, dunyoqarashi va aql-zakovatining natijasi sifatida yuzaga kelayotganligini inobatga oladigan bo'lsak, hozirgi davrda kishilarda texnogen ongni rivojlantirish insonlarning zaruriy ehtiyoji sifatida kun tartibiga chiqdi. Yangi-yangi texnika-texnologiyalarning kun sayin yaratilayotganligi insonlarda ulardan foydalanish qiziqishini ham shakllantirmoqda. Shuning uchun ham insonlar texnogen ongni shakllantirishga ehtiyoj darajasidagi masala sifatida qarab, unga intilmoqdalar. Haqiqatan ham, texnogen ongning shakllanishi bugungi avlodning ehtiyojiga aylanib, ularning hayotida muhim omil sifatida o'zini namoyon etmoqda;

oltinchidan, texnika va texnologiyani rivojlantirish uchun dunyo mamlakatlarida yashayotgan katta iqtisodiy imkoniyatga, ulkan ishlab chiqarish korporatsiyalariga ega bo'lgan va dunyoga mashhur milliarderlar («Apple» kompaniyasi asoschisi – Stiv Jobs, «Microsoft» asoschisi – Bil Geyts, «Google» kompaniyasi asoschilari – Sergey Brin, Larry Page, StarLink loyihasi asoschisi Ilon Mask va hokazolar) tomonidan bu sohaning rivoji yo'lida ajratayotgan katta sarmoyalari miqdorining kun sayin oshib borayotganligi. Bizga ma'lumki, texnika va texnologiya sohasini rivojlantirish yo'lida doimiy kashfiyotlar va izlanishlarni qo'llab-quvvatlaydigan insonlar katta daromad oladigan insonlar sifatida dunyoga mashhur. Mana shunday insonlarning xatti-harakati natijasida yaratilayotgan texnik ishlanmalarining muvaffaqiyatlari ko'pchilik insonlarning texnika va texnologiyaga bo'lgan talabining nihoyatda tez yangilanishiga olib kelmoqda. Natijada yangi kashf qilingan texnika vositalariga ega bo'lish istagini oshirmoqda («Apple» kompaniyasi 2016-yil 9-sentabr kunidan birinchi to'lqin mamlakatlarida iPhone 7 va 7 Plus uchun oldindan buyurtmalar qabul qilishni boshlagan. Ammo yangi smartfon xarid qilish uchun tuni bilan navbatda turish 8-sentabrdan boshlangan). Bu esa kishilarda texnogen ongning yanada rivojlanishini ta'minlaydi.

Xulosa va takliflar. Yana bir muhim omil, bugungi kunda texnika va texnologiya sohasiga oid bilim va ko'nikmalarni berishga mo'ljallangan IT parklar, IT kurslar, shu yo'nalishdagi IT-texnologiya o'quv markazlari, texnoparklar faoliyatining jadallashib borayotganligi kishilarda texnogen ongni rivojlantirish xohish-istaklari, ehtiyoj hamda talablarining kuchayib borayotganligini ko'rsatadi. Ota-onalar o'zlarining maktab yoshidagi bolalarini turli texnikaga oid bilimlarni beradigan kurslarga berishlari ularning texnikaga oid bilimlarga talabning oshib borishini ifodalaydi. Mana shu jarayon ham texnogen ongning shakllanish jarayonini ifodalaydigan harakatdir.

Dunyo miqyosida texnika va texnologiyalar rivoji bir tekisda kechishi, balki aqlga sig'mas hodisadir, lekin har

qanday mamlakat, millat, xalq o'zining bor imkoniyatlaridan samarali foydalangan holda texnika va texnologiya sohasida muayyan natijalarga erishishga harakat qilmog'i darkor. Texnika va texnologiya sohasida natijaga erishish uchun fuqarolarning texnogen ongini milliy ong darajasiga ko'tarish samarali natijalar beradi. Bu jarayonda texnogen ong milliy ongni yemirishi hisobiga emas, balki milliy ongni takomillashtirish hisobiga kechishi juda muhimdir.

Jahon miqyosidagi mamlakatlarda yashayotgan insonlar ham bugungi kunda texnogen ongning rivojlangan yoki rivojlanmaganligi borasida ikkiga bo'linib qoldi. Texnogen ong asosan yoshlarda rivojlanib bormoqda. Yoshi katta insonlarda esa bu yetarli darajada emas. Buning o'ziga xos tomonlari borki, texnogen ong rivojlanmagan insonlar texnika va texnologiyalarga oshno bo'lgan jamiyat a'zolarini tushunishlari biroz qiyin kechadi. Kattalarning nazarida texnika vositalaridan foydalanayotgan yoshlar go'yoki, texnikaga mukkasidan ketgan, qaram avlod bo'lib ko'rinadi. To'g'ri, texnikaga qaramlik vaqt o'tgan sayin kuchayib bormoqda, lekin bugungi avlod texnika va texnologiyalarsiz biror sohaning mutaxassisi bo'lishi aqlga sig'mas jarayon bo'lib qolmoqda. Texnogen ongning rivojlanmaganligi texnika va texnologiyalar imkoniyatlaridan yetarli darajada foydalana olmaslikni keltirib chiqaradi. Natijada bu texnika vositalariga bo'lgan munosabatlarimizning salbiylashishiga yoki texnika va texnologiyalarning ijobiy oqibatlarini to'g'ri baholay olmaslikka olib kelishi mumkin.

Demak, texnogen ong bugungi globallashuv sharoitida texnika taraqqiyoti bilan hamnafas bo'lib yashash va uning imkoniyatlaridan to'liq foydalana olishga ko'maklashadigan katta kuchga aylanib ulgurdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Floridi L. Mature Information Societies – A Matter of Expectations // *Philosophy and Technology*. – 2016. – Vol. 29. – No. 1. – P. 1–4.
2. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 123 b.
3. Avlakulov A. M. Texnogen sivilizatsiya va inson axloqi // *Academic Research in Educational Sciences*. – 2022. – No. 1. – P. 73–77.
4. Бакланов И. С., Пелевин С. И. Технологии и технологическое сознание в эволюции постиндустриализма: от информационного общества к обществу знаний и цифровому обществу // *Вестник Московского государственного областного университета. Серия: Философские науки*. – Москва, 2022. – № 1. – С. 60–65.
5. Muratova D. Texnogen sivilizatsiya davrida inson ongi transformatsiyalashuvining falsafiy tahlili: falsafa fanlari doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya. – Toshkent: O'zMU, 2020. – 151 b.
6. Otamuratov S. Globallashuv: millatni asrash mas'uliyati (siyosiy-falsafiy qirralari). – Toshkent: O'zbekiston NMIU, 2018. – 347 b.
7. Otamuratov S. Texnogen ong rivojlanishining omillari // *G'oyalar va innovatsion taraqqiyot: Respublika II ilmiy-nazariy seminar materiallari*. – Urganch: UrDU, 2013. – B. 82–90.